



CONSTITUTIONAL AND LEGAL SYSTEM: PRINCIPLES OF SOCIAL EQUALITY AND JUSTICE, MODERN CONCEPTUAL APPROACHES

Bekmukhammedova UgiLOY Ismoil qizi

Master's student of Tashkent State University of Law

e-mail: bekmuhammadiyevaogloy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17571292>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025

Accepted: 09th November 2025

Online: 10th November 2025

KEYWORDS

Social equality, justice, constitutional and legal foundations, rule of law, judicial independence, modern approaches, citizens' rights and freedoms, social protection, equal opportunities.

ABSTRACT

This article analyzes the constitutional and legal foundations of the principles of social equality and justice, revealing their current significance within the framework of modern approaches. Social equality is studied as a principle ensuring the equality of citizens' rights and freedoms, while justice is examined as a fundamental principle ensuring legality, fairness, and righteousness. The analysis is scientifically grounded from the perspectives of constitutional norms, international legal standards, judicial practice, and state policy. Furthermore, the article also addresses issues such as creating equal opportunities in the fields of social protection, education, and healthcare, as well as ensuring justice through the independence of the judiciary and the rule of law.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВАЯ СИСТЕМА: ПРИНЦИПЫ СОЦИАЛЬНОГО РАВЕНСТВА И СПРАВЕДЛИВОСТИ, СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ

Бекмухаммадова Угилой Исмаиловна

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

e-mail: bekmuhammadiyevaogloy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17571292>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025

Accepted: 09th November 2025

Online: 10th November 2025

KEYWORDS

Социальное равенство, справедливость, конституционно-правовые основы, верховенство закона, независимость суда, современные подходы, права и свободы граждан,

ABSTRACT

В данной статье анализируются конституционно-правовые основы принципов социального равенства и справедливости и раскрывается их актуальное значение в рамках современных подходов. В статье социальное равенство исследуется как принцип, обеспечивающий равенство прав и свобод граждан, а справедливость – как основной принцип, обеспечивающий законность, честность и правомерность. Они научно обоснованы с точки зрения конституционных



социальная защита, равные возможности. рўйхатидан ўтказиш, тижорат ва нотижорат юридик шахс.

норм, международных правовых стандартов, судебной практики и государственной политики. Вместе с тем, в статье также освещаются вопросы создания равных возможностей в сферах социальной защиты, образования и здравоохранения, обеспечения справедливости через независимость судебной власти и верховенство закона.

KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY TIZIMDA IJTIMOYIY TENGLIK VA ADOLAT TAMOYILLARI, ZAMONAVIY KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Bekmuxammadova O'g'ilo'ylar Ismoil qizi

Toshkent Davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: bekmuhammadiyevaogloy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17571292>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025
Accepted: 09th November 2025
Online: 10th November 2025

KEYWORDS

Ijtimoiy tenglik, adolat, Konstitutsiyaviy – huquqiy asoslar, qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi, zamonaviy yondashuvlar, fuqarolarning huquq va erkinliklari, ijtimoiy himoya, teng imkoniyatlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarining konstitutsiyaviy- huquqiy asoslari tahlil qilinadi va ularning zamonaviy yondashuvlar doirasida dolzarb ahamiyati ochib beriladi. Maqolada ijtimoiy tenglik- fuqarolarning huquq va erkinliklar tengligini ta'minlovchi tamoyil sifatida, adolat-qonuniylik, halollik va haqqoniylikni ta'minlovchi asosiy prinsip sifatida o'rganiladi. Konstitutsiyaviy me'yorlar, xalqaro huquqiy standartlar, sud amaliyoti va davlat siyosati nuqtai nazardan ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, maqolada ijtimoiy himoya, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida teng imkoniyatlar yaratish, sud hokimiyati mustaqilligi va qonun ustuvorligi orqali adolatni ta'minlash masalalari ham yoritilgan.

Kirish.

Bugungi kunda globalashuv va tezkor ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davrida ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari demokratik davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy konstitutsiyaviy prinsiplardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda teng huquqli imkoniyatlar yaratish, qonun oldida hammaning tengligi, sud hokimiyatining mustaqilligi, shuningdek inson huquqlarining to'liq kafolatlanishi davlatning siyosiy legitimligini belgilovchi ustuvor yo'nalishdir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli konstitutsiyaviy islohatlar, inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya va adolatli boshqaruvni rivojlantirish siyosati ushbu tamoyillarning amaliy hayotdagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Zamonaviy yondashuvlar asosida ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash davlat va jamiyatning izchil rivojlanishini ta'minlaydi.



Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarining konstitutsiyaviy- huquqiy asoslari – deganda davlat va jamiyatda barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari teng bo'lishi, boshqaruv va sud tizimida adolat, halollik va qonun ustuvorligining ta'minlanishi, bu tamoyillarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanganligi, shuningdek, bugungi zamonaviy islohotlar va xalqaro huquq talabalari asosida ushbu tamoyillarga yangicha, ilmiy–huquqiy yondashuvlarning shakllanishi tushuniladi.

Mazkur masala doirasida faoliyat olib borayotgan tadqiqotda ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarining konstitutsiyaviy- huquqiy asoslarini o'rganishda mahalliy va xalqaro ilmiy manbalar normativ- huquqiy hujjatlar, inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar, shuningdek, zamonaviy siyosiy-huquqiy tahlillar chuqur o'rganildi. J.Rawlsning "Adolat nazariyasi", A.Senning ijtimoiy tenglik konsepsiyasi, demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy boshqaruv tamoyillari hamda xalqaro huquq standartlariga oid ilmiy ishlanmalar asosiy metodologik manba sifatida foydalaniladi. Amartya Sen "G'oyalar va adolat " asarida ijtimoiy adolatni amalga oshirishda imkoniyatlar yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, adolat nafaqat resurslarning teng taqsimlanishida, balki har bir insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun haqiqiy erkinlikka ega bo'lishida namoyon bo'ladi.¹ Adolat deganda ko'pchilik resurslar va boyliklarning teng taqsimlanishini tushunadi. Yani, barcha insonlar bir xil miqdorda moddiy ne'matlarga ega bo'lish kerak degan g'oya, ammo insonning ehtiyoji, qobiliyati va hayoti turlichadir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.10.2023 yildagi 539 – sonli "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qarori yurtimizning kam ta'minlanganlarga davlat yordami, ijtimoiy tenglik mexanizimini kuchaytirishga qaratilgan say harakatlar o'z ifodasini topmoqda. Shuningdek, 28 ta tuman, shaharda eksperiment tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining " Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar ko'rsatadigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning yangi tizimi yo'lga qo'yilganligini ta'kidlab o'tish lozim.²

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi metodlar qo'llaniladi: qiyosiy – huquqiy tahlil, tizimli yondashuvlar, tarixiy – huquqiy tahlil. Konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlarning mazmuni tahlil qilinadi va xalqaro tajribada o'rganiladi.

Muhokoma. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarining konstitutsiyaviy- huquqiy asoslarini asosiy ko'rinishlari mavjud. Konstitutsiyaviy ko'rinishi- fuqarolarning qonun oldida tengligi, davlat organlarida adolatli qarorlar qabul qilinishi, diskriminatsiya va kamsitilishning oldini olish hisoblanadi.

¹ Sen A. The Idea of Justice. – London: Allen Lane, 2014. – 467 p

² "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 14.10.2023 yildagi 539- son.



Ijtimoiy tenglik tamoyili- bu barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, huquq va erkinliklarining barobar kafolatlanishi, va jamiyatdagi ijtimoiy – siyosiy imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishini ta’minlovchi konstitutsiyaviy-huquqiy prinsipdir.

Adolat tamoyili- bu qonuniylik, halollik va haqqoniylikka asoslangan sudlov va boshqaruv jarayonlari orqali ijtimoiy tartibni ta’minlovchi asosiy prinsipdir.

Konstitutsiyaviy- huquqiy asoslar – bu ijtimoiy tenglik va adolatning rivojlanishi huquqiy jihatdan belgilovchi, Konstitutsiya va qonunlar orqali kafolatlangan normativ me’yorlar majmuidir.

Zamonaviy yondashuvlar – bu global va milliy huquqiy tajriba, xalqaro standartlar va konstitutsiyaviy islohatlar asosida ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini yangi shakllarda tatbiq etish yondashuvidir.

Teng imkoniyatlar- bu har bir fuqaroning jinsi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, nogironlik, yosh yoki boshqa shaxsiy belgilardan qat’iy nazar, ta’lim olish, ishga joylashish, sog’liqni saqlash, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarida teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo’lishidir.

Ijtimoiy tenglik inson hayotining barcha jabhalarida – ta’lim, ish, sog’liqni saqlash, madaniyat, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda, barcha fuqarolarga bir xil imkoniyatlar berilishida namoyon bo’ladi. Bu inson hayotida diskriminatsiya, kamsitish yoki adolatsizlikning oldini olib har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi. Masalan, nogiron shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar ham sog’liqni saqlash va ta’lim xizmatlaridan teng foydalanish huquqiga ega bo’ladi va davlat tomonidan ushbu huquqlardan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratiladi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida O’zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir – biriga nisbatan o’zaro huquq va majburiyatlari bilan bog’liq ekanligi belgilab qo’yilgan. 130- modda esa sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiya va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqilligi belgilanganligi mamlakatimizda adolat tamoyillari va huquq ustuvorligini aks ettiradi.³ Bu sud organlarining adolatli, shaffof va mustaqil faoliyat olib borishi uchun konstitutsiyaviy-huquqiy asos hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1- moddasida O’zbekiston – davlat boshqaruvining respublika shakliga ega bo’lgan suveren, huquqiy ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlab qo’yildi.⁴ Ijtimoiy davlat modeli - har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishishi uchun, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga amaliy yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat hisoblanadi.

Shuningdek, BMT tomonidan qabul qilingan Universal Declaration of Human Rights va boshqa xalqaro huquqiy normativlar milliy qonunchilikni takomillashtirishda asosiy me’yorlar sifatida xizmat qiladi. Global jarayonlar- ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy tengsizlik va gender kamsitish kabi muammolarni keltirib chiqarganligi sababli ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini amalga oshirish dolzarbligini oshirmoqda. Jumladan

³ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil

⁴ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil



mamlakatimizda, 2019-yil “Xotin–qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida” hamda “Xotin –qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi, qonunlar qabul qilinganligi va O’zbekiston 2024-yilda “Gender tenglik va boshqaruv indeksi”da 103- o’rindan 52- o’ringa ko’tarilganligi Markaziy Osiyoda eng katta, jahon miqyosida ikkinchi yirik o’sishni ko’rsatmoqda. Shuningdek, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida “ gi qonunning 23-moddasida davlat organlari, shuningdek mulkichilik shaklidan qat’iy nazar tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari aholini ijtimoiy himoya qilish choralarini amalga oshirishda xotin –qizlar va erkaklarning huquqlarini teng darajada hisobga olish shartligi, xotin –qizlar va erkaklar ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishda teng huquqlarga ega ekanligi belgilanganligi mamlakatimizda ijtimoiy tenglik tamoyillarining ta’minlanayotganligini ko’rsatadi. ⁵

Natijalar. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari O’zbekiston Respublikasining demokratik rivojlanishida mustahkam huquqiy poydevor hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 14-moddasida, davlat o’z faoliyatini inson faravonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsipi asosda amalga oshiradi deb belgilab qo’yilgan

Ijtimoiy adolat va huquqiy tenglikni yanada mustahkamlash uchun sud tizimining mustaqilligini kuchaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda fuqarolarning huquqiy ta’limini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Ushbu yo’nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar O’zbekistonda huquqiy davlat tamoyillarining yanada chuqurroq va samarali tatbiq e’tilishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari va demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy konstitutsiyaviy qadriyatlardir. Ijtimoiy tenglik, adolat va teng imkoniyatlar tamoyillari davlatning insonparvar siyosati, konstitutsiyaviy-huquqiy barqarorligi va xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlovchi asosiy faktorlardir. Zamonaviy islohotlar va xalqaro yondashuvlar ushbu tamoyillarni yanada rivojlantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini to’liq kafolatlash hamda ijtimoiy adolatli jamiyat yaratishga xizmat qiladi. Shunday ekan, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini amalda ta’minlash – bugungi kunda nafaqat dolzarb masala, balki strategik ahamiyatga ega milliy vazifadir.

Ijtimoiy adolat ta’minlashning istiqbollari, huquqiy mexanizmlarning yanada takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish , jamiyatni institutlar ro’lini oshirish , ijtimoiy adolat ko’rsatkichlarini baholash tizimlarini yanada kengaytirish ijobiy o’zgarishlarga olib keladi. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari demokratik davlatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tizimining uzviy asosini tashkil etadi. Ular jamiyatning barqaror rivojlanishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, inson qadr-qimmatining e’zozlanishi va ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishida hal qiluvchi rol o’ynaydi.

⁵ Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida– O’zbekiston Respublikasining Qonun 2019-yil 2-sentyabr.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent 2023.
2. “Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 14.10.2023 yildagi 539- son.
3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonun 2019-yil 2-sentyabr.
4. Sen A. The Idea of Justice. – London: Allen Lane, 2014. – 467 p